

## BOLALARNI BOSHLANG'ICH TALIMGGA MAJBURIY BIR YILLIK TAYYORLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

**Daminova Shaxnoza Axrolovna**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 1-bosqich  
magistranti, Toshkent viloyati, Toshkent  
tumani 12-DMTT direktori

### **Annotatsiya**

*Maqolada jahon ta'lim tizimida ta'lim turlararo uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashga qaratilgan ilg'or xorijiy tajribalar hamda ularning amaliy ahamiyati yoritilgan. Xususan, Carl Wieman Science Education Initiative (Kanada), Purdue University (AQSh), JCM International Management Engineering Institute (Xitoy) va International Institute for Sustainable Development (IISD) kabi nufuzli tashkilotlarda ta'lim samaradorligini oshirish, interaktiv metodlarni joriy etish va uzluksiz ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:**uzluksiz ta'lim, uzviylik, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, ta'lim sifati, xalqaro tajriba, fan dasturlari, interaktiv ta'lim, moslashuv jarayoni, pedagogik tahlil, ta'lim samaradorligi.

Bugungi globallashtirish jarayonida ta'lim tizimini takomillashtirish hamda bolalarning sifatli boshlang'ich ta'limga tayyorligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlang'ich ta'limga o'tish jarayonidagi uzviylik va izchillikni mustahkamlash, ayniqsa, majburiy bir yillik tayyorlov tizimini samarali yo'lga qo'yish orqali ta'limning ilk bosqichlaridagi sifat ko'rsatkichlarini oshirishga erishiladi.

Birinchi sinf o'quvchilarining yangi ta'lim muhitiga moslashuvi, bilim faoliyatini shakllantirish, nutq, tafakkur, ijtimoiy-emotsional rivojlanish ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanishi bevosita mazkur tayyorlov tizimining qanday tashkil etilgani bilan chambarchas bog'liqdir. Jahonning ilg'or tajribalarida bolalarni boshlang'ich ta'limga puxta tayyorlash yo'nalishida innovatsion metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari keng qo'llanayotgani kuzatiladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda majburiy bir yillik tayyorlov tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonning samaradorligi ta'lim dasturlari uzviyligi, pedagoglarning metodik tayyorgarligi, ota-onalar bilan samarali hamkorlik va bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish bilan belgilanadi. Mazkur maqolada majburiy bir yillik tayyorlov tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etishning ilmiy-amaliy yo'llari yoritiladi.

Jahon ta'lim tizimida ta'lim turlararo uzluksizlik va uzviylikni ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar olib borayotgan xorijiy ta'lim tashkilotlarining ham tajribalari o'rganilmoqda. Jumladan, Carl Wieman Science Education Initiative (CWSEI) loyihasida (Britaniya Kolumbiyasi), ta'lim samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar Purdue Universityda (AQSh) va JCM International Management Engineering Instituteda (Xitoy) hamda interaktiv ta'limni amalga oshirish bo'yicha tadqiqotlar BMTning International Institute for Sustainable Development (IISD) kabi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida olib borilmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etuvchi muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Xususan uzluksiz ta'limning 1-bosqichi bo'lmish maktabgacha ta'limning tez suratlarda o'sib borishi ta'lim sifatini yanada takomillashtirib borishni zamon talabiga aylantirib qo'ydi. Yagona ta'lim makonini yaratishda bir qator omillarni, eng avvalo, tizimga ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari jalb etilishini hisobga olish zarur.

Uzviylik va uzluksizligini ta'minlash bolalarni tarbiyalash va o'qitish uchun sharoitlarni yaqinlashtirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonini bir-biriga bog'liq tarzda tashkil etishga hamda o'qitishni samarali olib borishga ko'mak beradi. Bolalar bog'chasi va maktab ishidagi uzluksizlik maxsus, yaxlit yaratishni nazarda tutadi. Bunday yagona ta'lim muhitini tashkil etishda ta'lim muassasalari tomonidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – ta'lim va ta'limga yagona yondashuvni oqilona rivojlantirishdir.

Uzluksiz ta'lim tizimida fan dasturlarining uzviyligi ta'minlanmaganligi ta'lim sifati va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, ta'lim turlararo mavzularning takrorlanishi, ayrim mavzularga haddan ziyod ko'p soatning ajratilgani, fan mazmuni deyarli nazariy ma'lumotlarga asoslanganligi hamda xalqaro tadqiqotlar singdirilmaganligi kabi muammolar mavjud. Ta'lim bosqichlari mazmuni tahlilida 10-15 foiz mavzularning takror berilayotganligi, 50-60 foiz mavzularda uzviylik ta'minlanmaganligi tahlillarda ko'rindi. Uzviylikning yo'qligi uzluksiz ta'lim turlararo fan xususiyatidan kelib chiqqan holda obyekt va subyekt tanlovi va mazmunida nomutanosibliklar mavjud. Birinchi sinf o'quvchilarini yangi o'quv sharoitlariga moslashtirish muammosi ayniqsa dolzarbdir. Uni o'rganishga bolalar psixologlari, o'qituvchilari, shifokorlari va olimlari katta e'tibor qaratmoqda. Mutaxassislar masalani har tomonlama o'rganib chiqib, birinchi sinf o'quvchisining jamiyatga moslashuvi muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi omillardan biri bu bog'cha va maktab ishidagi uzluksizlik degan xulosaga keldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" 595-sonli Qonuni – 2019-yil 16-dekabr.
2. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. // Toshkent. — "Vorishnashriyot". 2006
3. Firsova I.B. Vzaimodeystviye doshkolnoy obrazovatelnoy organizatsii i semi po razvitiyu rechi rebenka: dissertatsiya ... kandidata pedagogicheskix nauk: 13.00.01 / Firsova Ilona Borisovna;.- Velikiy Novgorod, 2014.- 223 s.
4. Shin A.V. Perspektivy razvitiya sistema doshkolnogo obrazovaniya Respubliki Uzbekistan. //Maktabgacha ta'lim metodikasi va nazariyasi – Toshkent. , – 2020. – № 2. –C.2-6.
5. Henderson, A. T., & Mapp, K. L. (2002). A New Wave of Evidence: The Impact of School, Family, and Community Connections on Student Achievement. National Center for Family & Community Connections with Schools.
6. Valiyeva. F.R. Teoreticheskiye osnovy i evolyutsiya sistema kpi v upravleniya chelovecheskimi resursami. "Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini rivojlantirish: amaliyot va xorijiy tajriba" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to'plami 1-qismi (2024-yil 23-24-may) – T.: Science and Innovation, 2024.
7. Valiyeva F.R., Sharipova G. N. Innovative technologies in improving the management of preschool educational organizations// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/intjecse/v14i5.94 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 05 2022

8. Abdullayeva N.Sh. Significance of health-saving technologies in a Preschool educational organization// Abstracts of V International Scientific and Practical Conference,Osaka, Japan 29-31 January 2020, 14-16 bet

9. Edwards, C., Gandini, L., & Forman, G. (Eds.). (2012). Sotrudnichestvo mejdu roditelyami i pedagogami v Redjio-Emiliya: Protsess otkrytiya sebya i drugix. Teachers College Press.